

LOLILAR VA JO'G'ILAR TARIXI VA URF-ODAT, MAROSIMLARI.

Olimova Zilolaxon G'ayratjon qizi

Andijon Davlat Universiteti
Tarix fakulteti tarix yo'nalishi
301-guruh talabasi

Annatsiya: Ushbu tezida Lolilar va ularning urf odatlari, yashash sharoitlari xaqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Lolilar, jo'gilar, fir'avn kabilasi, folbinlik, mug'ati tubjoyi.

Lo'lilar, jo'gilar — ko'chmanchi xalq. Jahondagi barcha mamlakatlarda tarqoq holda yashaydi. Lolilarning, asosan, 2 guruhi: Yevropa lolilari va O'rta Osiyo lolilari bor. O'zbekistonda lolilar., Tojikistonda jo'gilar, Armanistonda boshqa, Angliyada misrlik, Eronda qoracha, Fransiyada fir'avn kabilasi, Finlyandiyada qora, Rossiyada sigan va boshqa nomlar bilan atalgan. Lolilarning asl vatani, qachon va qanday qilib jahonga tarqalganligi fanda uzoq vaqt jumboq bo'lib keldi. 19-asrda nemis tilshunosi A. A. Pott, F. Mikloshich lolilar tilining hind tili bilan qardosh til ekanligini aniqladi. Shuningdek, Eronda lolilar.ning Karachi, O'zbekistonning ayrim r-nlarida mo'ltoni deb atalishi Pokistondagi Karochi va Mo'lton shaharlari nomi bilan bog'liq. O'rta Osiyo lolilarining ayrim guruxlari jo'gi (hindcha kambag'al, qashshoq), hindistoniy, bo'lujiy deb atalishi ham lolilarning asl vatani Xindiston bo'lganligini tasdiqlaydi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Lolilarning dastlabki guruhlari mil.ning boshlarida, 5—7-asrlar va keyingi davrlarda Shimoliy Hindistondan tarqala boshlagan. Lolilarning ayrim guruhlari Hindistondan — Belujiston — Afg'oniston — Eron — Kavkaz — Turkiya — Yunoniston orqali, ikkinchi yo'l Hindiston — Eron — O'rta Osiyo orqali bo'lgan.

Yevropa lo'lilari (o'zlarini roma deb ataydilar). Tili hind tillari bilan bogliq bo'lib, shim. va jan. shevalarga bo'linadi, shuningdek, o'zlari yashaydigan mamlakat xalqi tilida ham so'zlashadi. Dindorlari rasman pravoslav diniga e'tiqod qiladi (ularda hind mifologiyasi bilan bog'liq diniy tasavvurlar ham kuchli). Lolilarning Yevropaga kelgani haqidagi dastlabki ma'lumot 1100-yilga oid. 1417-yil Vengriya, 1418-yil Germaniya, 1422-yil Ispaniya, Italiya, 1430-yil Angliya va Boltiq bo'ylari, 1500-yil Polsha va boshqa mamlakatlarga tarqaladi. Rossiyaga Ruminiya orqali kelishgan. Ular 15-asrda Bessarabiya, 16-asrda Belorussiya, 17-asrda Ukraina, Rossiyaning jan. r-nlariga tarqalgan (L. Angliyada gupiyes, Turkiyada chingine, Portugaliyada chidan, Italiyada zingali deb ataladi). Lolilar hayot kechirish tarziga ko'ra, o'troq va ko'chmanchilarga bo'lingan. O'troq Lolilar shahar chekkalarida yashab, hunarmandlik bilan mashg'ul bo'lgan. Ko'chmanchi Lolilar tilanchilik, folbinlik, ot savdosi va boshqa bilan tirikchilik o'tkazgan. Lolilar qabila va qabila (ayrim hollarda bir tuda qarindoshlar) ittifoqi — taborga uyushib, tabor tepasida saylab qo'yiladigan boshliq tur O'rta Osiyo lo'lilari (o'zlarini mugat, tub aholi ularni lo'li, jo'gi, mazang deb ataydi). Qadimdan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona, Qo'qon, Qarshi kabi shaharlar atrofi va ularga tutash qishloqlarda yashab keladi. Lolilar o'zbek va tojik tillarida so'zlashadi, ammo tojik tili ularning turmushida asosiy hisoblanadi.

O'rta Osiyo Lolilari lavzi mug'at yoki arabcha deb ataladigan o'zlarining maxsus so'zlashuv tiliga ham ega. Lo'lishunos X. Nazarov o'lkamizga Lolilar ning kirib kelishini 3 guruhga bo'ladi. Birinchi guruhi — mahalliy Lolilar (mug'ati tubjoyi) — ancha oldin kelgan; ikkinchi guruhi — afgon Lolilari (jo'gi, afgani); uchinchi guruhi esa — hind Lolilari (mo'g'ati hindu) bo'lib, bular ancha keyin kelgan. Olim Lolilarni yana o'z navbatida 3 ta etn. guruhga bo'ladi: 1) asosan, ko'chmanchilik qilib xayrsadaqa yig'ib, kun ko'rishadigan, folbinlik, tabiblik, zargarlik qiluvchi L; 2) tovoqtarosh, ular yarim o'troq hayot kechirishadi, asosan, yog'ochga ishlov berish bilan shug'ullanishadi, xususan, yog'ochdan beshik, tovoq, qoshiq, cho'mich yasashadi. Qadimda ular yasagan yog'och tovoqlarga ehtiyoj katta bo'lgan, shu tufayli ularni tovoqtarosh deb atashgan; 3) mazang, o'trok Lolilar (jo'gilar), asosan, mayda savdogarlik bilan, shuningdek, dehqonchilik bilan shug'ullanishgan.

Ayol lo‘lilar kichik savdo bilan shug‘ullangan – ular pardoz buyumlari, igna, iplar, hamda lo‘li erkaklar tayyorlagan mahsulotlarni sotgan. Ba‘zilari fol ochish bilan shug‘ullangan. Ularning orasida tabiblar ham bor bo‘lgan.

Ba‘zi lo‘lilar to‘dasida ayollar do‘ppi va kamarlarni tikish bilan shug‘ullangan. Lekin ularning asosiy mashg‘ulotlari tilanchilik bo‘lgan. Yozda va ayniqsa qishda ayollar bolalari bilan birga yelkasiga xurjun osib, sadaqa yeg‘ib yurgan. Itlarni quvish uchun qo‘lida uzun hasa (aso) bo‘lgan. Ayol lo‘lilar mayda o‘g‘irlik ham qilgan.

Tilanchilik va tabiblik bilan ba‘zi erkaklar ham shug‘ullangan. Lo‘li va jugut erkaklar ishlab chiqaruvchi mehnat bilan ko‘proq mashg‘ul bo‘lib, oilasini boqish haqida qayg‘urgan. Lo‘lilarning aksariyati uchun daromadning asosiy manbasi ayollar shug‘ullanadigan tilanchilik edi. Kichkina qop va hasa bilan qurollangan ayollar har kuni har kuni shahar va qishloqlarda hovlima hovli yurib, sadaqa yig‘gan. Yo‘l-yo‘lakay ko‘zgu yoki bir piyola suv yordamida fol ham ochgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T., «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi milliy nashriyoti 2001-2006.
2. Jahon mamlakatlari. Qisqa ma'lumotnoma. T., Sharq. 2006
3. Lolilar xaqidagi jaxon ensiklopediyasi .
4. www.arxiv.uz